

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 758 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIVAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA Budget-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safojev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutrayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIYAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLİYALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....	504
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	508
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	514
Adilov Mirkomil Miralimovich	
IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI	520
Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li	
MO'RT MATERIALLARNI MEXANIK KESIB ISHLOV BERISHDA ASBOB YUZASIDA KUZATILADIGAN YEYILISH	526
Allanazarov Akmal Abdulxaqovich, Axmedov Azamat Xaitovich, Shakirov Shuhrat Musayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	530
Lukmanov Kahramon Abdurahmanovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	534
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
KICHIK BIZNESNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	540
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	



PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDAGI PNEVMOQUVUR TIRSAK MATERIALINI YAXSHILASH ORQALI PAXTA SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH	546
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING EKOLOGIK AKTIVLARINI HISOBGA OLISH	549
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
DEHQON XO'JALIKLARIDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK XAVFSIZLIGI VA UNING BAHOLASH USULLARI.....	553
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRILGAN KORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MOLIVAVIY NATIJADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	557
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNING ORTIB BORISHI JAHON MIQYOSIDA JORIY ETILAYOTGAN BUSINESS READY REYTINGIDAGI BAHOLASH NATIJALARIDA YAQQOL NAMOYON BO'LMOQDA.....	562
Platov Dilshod Xaqberdiyevich, Raxmonov Doniyor Ixtiyorjon o'g'li, Ortiqova Niginabonu Alisher qizi, Raxmonov Jo'rabek Hamroyevich	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA INVESTITSIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.....	570
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI MATERIALLAR ISHLAB CHIQRISHDA SANOAT CHIQINDILARNI FOYDALANISHNING DUNYO VA O'ZBEKISTON MIQYOSIDAGI HOLATI	574
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
KORXONALAR ISHLAB CHIQRISH POTENSIALINING XUSUSIYATLARI VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	578
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV SUG'URTA INSTITUTINING RIVOJLANISH ZARURATI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	583
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
INNOVATIVE APPROACHES TO IMPROVING STUDENTS' DIGITAL COMPETENCE	588
Jalqasbayev Sultanbek Tayrbek uli	
KREATIV TURIZMDA YANGI TAJRIBALAR YARATISH: IJODIY KLASSTERLAR, MAHALLIY HUNARMANDCHILIK VA IMMERSIV TEXNOLOGIYALAR ROLI	593
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	599
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY MAHSULOTLAR	605
Nazarova Umida Mamadali qizi	
CREDIT RISK MANAGEMENT AND PROFITABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN AN EMERGING MARKET: THE CASE OF UZBEKISTAN	609
Ruzmamat Khudayberganov Shokirjon ugli, Sobirov Yuldoshboy Ruzimboevich, Nodirbek Fayzullaev Baxtiyor Ugli	
PAXTA XOMASHYOSIDAGI IFLOSLIKLARNI TOZALASHDA UNUMDORLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OPTIMAL PARAMETRLARNI ANIQLOVCHI MATEMATIK MODEL.....	616
Karimov Abdusamat Ismonovich, Imomnazarova Nurjaxon	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО КАК ИНСТРУМЕНТ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО И ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	621
Муродбек Болтабоев	



YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	626
Valiev Umid Gulamovich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	631
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
HR MARKETING STRATEGIYALARINING KORXONA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	635
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING TADQIQOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	641
Musayeva Shoirazimovna	
ЭМПИРИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЗРЕЛОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА И ЦИФРОВИЗАЦИИ В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ УЗБЕКИСТАНА	646
Джуманиязова Сабина Михайловна	
MAMLAKATIMIZDA INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: ISTIQBOLLAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR	654
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
SYNTHESIS OF FLAME-RESISTANT NANOCOMPOSITE COATINGS, THEIR THERMO-MECHANICAL PROPERTIES, AND PRACTICAL APPLICATION IN THE EVALUATION OF HEAT RESISTANCE	658
Tosheva Dilfuza Farxodovna, Siddikov Ikrom Iminjonovich, Rakhimov Firuz Fazlidinovich	
TELEKOMMUNIKATSIYA KORXONALARI FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	663
Xusanov Durbek Nishanovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЖЕЛЕЗОБЕТОННОЙ ТОНКОСТЕННОЙ КОНСТРУКЦИИ С ГРУНТОВЫМ МАССИВОМ В УСЛОВИЯХ ПОЛЗУЧЕСТИ	667
Уринов Адхамджан Акбарович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	673
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
BOLALAR KIYIMI TEXNOLOGIYASIDA XAVFSIZLIK TALABLARI	679
Ergasheva Rashida Abdug'anievna	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI	683
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
YANGI KELAJAK UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QAMRAB OLISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	689
Jalilov Sherzod Kaxramanovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	693
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MEHNAT BOZORI VA BANDLIKNING TRANSFORMATSIYASI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	697
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
К ВОПРОСУ РАСЧЕТА ПАРАМЕТРОВ КРОМОК ПРИ ВЫСОКОЧАСТОТНОЙ СВАРКИ ТРУБНОЙ ЗАГОТОВКИ ИЗ ФЕРРОМАГНИТНОГО МАТЕРИАЛА	704
Заиркулов Элёр Ёқубжон ўғли	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA XARAJATLARNI KAMAYTIRISHGA UMUMIY YONDASHUVLAR	708
Saidova Kamola Xoshimovna	



ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ЗАТРАТАМИ НА ПРОИЗВОДСТВО ПРОДУКЦИИ	713
Минутдинова Лилия Тагировна	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING INSTITUTIONAL VA TARKIBIY OMILLARI EMPIRIK TAHLILI	719
Raximov To'xtabek Jumaboyevich	
BOZOR IQTISODIYOTIDA ISH HAQI, FOYDA, FOIZ VA RENTA DAROMADLARI TAHLILI	724
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MARKETING VA LOGISTIKA FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	728
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
ELEKTRON TIJORATDA MA'LUMOTLAR (BIG DATA) VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	733
Baymuradov Shoxrux Mahmudovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI, MOHIYATI, ZARURLIGI VA VUJUDGA KELISH SHART-SHAROITLARI	738
Yakubov Dilshod Kamildjanovich	
ILG'OR XORIJ TAJRIBALARIDAN O'ZBEKISTON AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	745
Shodmonov Bahodir Sherkulovich	
BANKLARDA MOLIYAVIY MEXANIZM VA UNING KORPORATIV BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI.....	752
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	



BANKLARDA MOLIYAVIY MEXANIZM VA UNING KORPORATIV BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI

Temirov Abdulaziz Alimjanovich

TDIU “Innovatsion menejment” kafedrası

i.f.n., dotsent,

e-mail: abdulaziz38@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada muallif tomonidan tijorat banklarining moliyaviy mexanizmi va uning korporativ boshqaruvdagi ahamiyati yoritilgan, uning tarkibiy qismlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan hamda bank moliyasining amal qilish tamoyillari bayon etilgan. Shuningdek, bank moliyaviy boshqaruv tizimi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, korporativ boshqaruv, moliyaviy mexanizm, bank moliyasi, moliyaviy qarorlar qabul qilish, moliyaviy usullar.

Abstract. In this article, the author highlights the financial mechanism of commercial banks and its importance in corporate governance, provides information on its key components, and outlines the principles of banking finance functioning. In addition, proposals are developed to improve the effectiveness of the bank's financial management system.

Keywords: commercial banks, corporate governance, financial mechanism, banking finance, financial decision-making, financial methods.

Аннотация. В статье рассматривается финансовый механизм коммерческих банков и его значение для корпоративного управления, приводится информация о его компонентах и описываются принципы банковского финансирования. Также разработаны предложения по совершенствованию функционирования системы финансового управления банка.

Ключевые слова: коммерческие банки, корпоративное управление, финансовый механизм, банковское финансирование, принятие финансовых решений, финансовые методы.

KIRISH

Moliyaviy mexanizm keng ma'noda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida jamiyat tomonidan qo'llaniladigan moliyaviy munosabatlarni tashkil etish shakllari, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish usullari majmui hisoblanadi. Korxonalar, jumladan banklar miqyosida esa moliyaviy mexanizm ularning mavjud moliyaviy resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, rag'batlantirish va tashkil etishni o'zida ifodalovchi moliyaviy vositalar harakati tizimidir.

Tijorat banklari faoliyatini boshqarish kelgusida daromad olish maqsadida moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning turli sohalariga joylashtirishga qaratilgan. Bunda bank kapitalizatsiya darajasini oshirish, faoliyat ko'lamini kengaytirish kabi boshqa maqsadlarni ham daromadlarning xarajatlardan ortib ketmasligi sharoitida amalga oshirishi mumkin. Tijorat banklarining o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan qat'i nazar, ularning faoliyati doimo risk bilan bog'liq bo'ladi. Demak, tijorat banklari moliyasining mohiyatini to'liq tushunish uchun uning moliyaviy mexanizmini o'rganish zarur. Shu sababli, korporativ boshqaruv o'z faoliyati jarayonida moliyaviy mexanizm orqali tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish tizimiga ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy mexanizm va uning tarkibiy elementlarini tahlil qilish jarayonida turli olimlar tomonidan moliyaviy usullarning mohiyatiga nisbatan xilma-xil ilmiy yondashuvlar shakllanganini kuzatish mumkin. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, korxonalar bo'yicha moliyaviy mexanizmning mohiyati va tarkibiy qismlari juda yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, bank sohasida mazkur masalalar to'liq ko'rib chiqilmagan. G'arb



iqtisodchilari tomonidan “bank moliyasi” atamasi “pul mablag’larini investitsiya qilish operatsiyalari va kapital bozoriga moliyalashtirish mablag’larini jalb qilish bilan bog’liq moliyaviy investitsiyalar” tarzida talqin qilinadi [4].

I.A. Blank fikricha, moliyaviy mexanizm — “korxonaning moliyaviy faoliyati sohasidagi boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga ta’sir etishning asosiy elementlari to’plami”dir [3]. I.T. Balabanov moliyaviy mexanizmi “moliyaviy resurslardan foydalanishni tashkil etish, rejalashtirish va rag’batlantirishda ifodalangan moliyaviy vositalarning ishlash tizimi” sifatida taqdim etadi hamda uning tarkibini moliyaviy usullar, moliyaviy vositalar, huquqiy yordam, tartibga solish va axborot ta’mini kabi elementlar tashkil etishini qayd etadi [2].

Iqtisodchi olim A.G. Gryaznova esa moliyaviy mexanizmning mohiyatini “moliyaviy munosabatlarni tashkil etish turlari va shakllari, moliyaviy resurslarni shakllantirishda, maqsadli mablag’larni shakllantirish va ulardan foydalanishda qo’llaniladigan hisoblash shartlari hamda usullari to’plami bilan ifodalangan iqtisodiy mexanizmning ajralmas qismi” sifatida izohlaydi [4].

Tadqiqotlar natijasida olingan xulosalarga ko’ra, tijorat banklarining moliyasi milliy iqtisodiyotda pul oqimi jarayoniga vositachilik qiluvchi xizmatlar ko’rsatish asosida daromadlar va jamg’armalarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan pulni qayta taqsimlash munosabatlari yig’indisi hisoblanadi. Banklarning moliyaviy mexanizmi esa bank faoliyatining ayrim jihatlari bo’yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishni ta’minlaydigan, shuningdek ushbu qarorlar natijalari uchun javobgar bo’lgan bankning ichki tarkibiy bo’linmalari va xizmatlarining o’zaro bog’liq tizimidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklarida moliyaviy mexanizm va uning tarkibiy qismlari bilan bog’liq ilmiy tadqiqotlarni o’rganish, ta’rif va tushunchalarning shakllanishini qiyosiy solishtirish, ma’lumotlarni o’rganish hamda iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish jarayonida mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotlarni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklari har qanday tijorat tashkilotiga xos bo’lgan operatsiyalarni amalga oshiradilar. Shuningdek, pul muomalasiga bog’liq xizmatlar ko’rsatish, moliya bozorida operatsiyalarni bajarish bilan bog’liq jarayonlar, xususan hisob-kitob va kassa, depozit, kredit, buxgalteriya hisobi, emissiya va boshqa operatsiyalarni amalga oshiradi. Natijada tijorat banklari operatsiyalarini bajarish jarayonida pul munosabatlari yuzaga keladi. Bundan tashqari, banklar mamlakat budjet tizimi ijro etuvchi organlarining hamda budjetdan mablag’ oladigan tashkilotlarning hisob-kitob (joriy) hisobvaraqlarini ochadilar va ularga xizmat ko’rsatadilar. Ushbu moliyaviy operatsiyalar tijorat banki tomonidan mijozlar bilan tuzilgan shartnoma shartlari hamda hisob-kitob va kassa xizmatlari tariflari asosida, pul to’lanadigan yoki bepul shaklda amalga oshirilishi mumkin.

O’rganishlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, tijorat banklarining faoliyati ikki tomonlama xususiyat bilan tavsiflanadi:

— birinchidan, u foyda olishga qaratilgan bo’lib, tijorat banklari tijorat muassasasi hisoblanadi. Shu bilan birga, tijorat banklari mijozlarga pullik kredit, hisob-kitob va kassa xizmatlari, konsalting xizmatlari ko’rsatadi, shuningdek mijozlarning qimmatli qog’ozlar portfellarini boshqaradi;

— ikkinchidan, tijorat banklarining faoliyati makroiqtisodiy ahamiyatga ega, chunki u iqtisodiyotdagi naqd va naqd bo’lmagan pul aylanishiga xizmat qiladi. Bu esa, o’z navbatida, davlatning makroiqtisodiy barqarorligini hamda xo’jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining moliyaviy faoliyati o’z mohiyatiga ko’ra bir qator tamoyillar tizimiga asoslanadi. Avvalo, bank o’z mablag’larini mustaqil tarzda boshqarish huquqiga ega bo’lib, bu huquq amaldagi qonunchilik me’yorlari bilan cheklanadi. Shuningdek, bank faoliyatining markazida foyda olish maqsadi yotadi, bu esa mavjud imkoniyatlar ichida eng yuqori rentabellikni ta’minlaydigan operatsiyalarni tanlashni talab etadi. Bundan tashqari, risklarni minimallashtirish tamoyili bank faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo’ladi, ya’ni teng sharoitlarda xavfi eng past bo’lgan operatsiyalar ustuvor hisoblanadi. Tijorat banklari qisqa muddatli natijalardan ko’ra uzoq muddatli barqarorlik va samaradorlikka asoslangan faoliyat yuritishga intiladi. Nihoyat, barcha moliyaviy amaliyotlar davlat tomonidan belgilangan iqtisodiy standartlar, qonuniy me’yorlar hamda nazorat talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining moliyaviy mexanizmi bir-biri bilan bevosita aloqador bo’lgan bir qator elementlarni o’z ichiga oladi [3]:

1. Moliyaviy usullar. Moliyaviy munosabatlar orqali iqtisodiy jarayonga ta’sir ko’rsatish usullari bo’lib, ular moliyaviy munosabatlarni hisobga olish, tahlil qilish, rejalashtirish va prognozlash sohalarini tartibga soladi, shuningdek nazoratni amalga oshirishga xizmat qiladi.

2. Moliyaviy vosita (richag)lar. Moliyaviy aktivlarning ko’payishi yoki kamayishiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi vositalardir.

3. Huquqiy-me'yoriy asoslar. Bank faoliyatining qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash uchun moliyaviy munosabatlar va moliyaviy boshqaruvni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik bazasi, shuningdek tijorat banklarining ichki normalari, qoidalari va ko'rsatmalari majmuini anglatadi.

4. Axborot ta'minoti. Samarali boshqaruv va bank faoliyatini amalga oshirishga xizmat qiladigan axborot ko'rsatkichlarini maqsadli tanlash tizimini o'z ichiga oladi. Bank qanchalik yirik bo'lsa, axborot bazasi shunchalik keng, mazmunli va amaliy jihatdan foydali bo'lishi zarur.

O'z navbatida, yuqoridagi holatlar tijorat banklari moliyasining quyidagi xususiyatlarini belgilaydi:

1. Tijorat banklari tomonidan moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar davlat tomonidan yuqori darajada tartibga solinadi.

2. Tijorat banklari moliyaviy resurslarni makro va mikroiqtisodiy darajada qayta taqsimlash jarayoniga vositachilik qilgani sababli resurslarning qayta taqsimlash xususiyati yuzaga keladi. Demak, tijorat banklarida davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslari, shuningdek aholining mablag'lari qayta taqsimlanishi jarayonida pul daromadlari, jamg'armalar va tushumlar shakllanadi. Bundan tashqari, tijorat banklarining moliyaviy resurslari moliya bozoridagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun faol ravishda foydalaniladi.

3. Tijorat banklarida yuridik shaxslarning, davlat organlarining pul mablag'lari hamda fuqarolarning jamg'armalari saqlanadi. Shu sababli tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi mamlakat moliya-kredit tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Tijorat banklarining moliyaviy faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'z pul mablag'larini erkin tasarruf etish;
- foyda olishga intilish, ya'ni teng sharoitlarda maksimal rentabellikni ta'minlaydigan operatsiyalarni amalga oshirish;
- riskdan qochish, ya'ni teng sharoitlarda minimal riskli operatsiyalarni afzal ko'rish;
- qisqa muddatli natijalardan ko'ra uzoq muddatli, istiqbolli, barqaror va samarali faoliyatga ustunlik berish;
- tijorat banklarining faoliyati, likvidligi hamda moliyaviy barqarorligini tartibga soluvchi davlat tomonidan belgilangan qonunchilik me'yorlari, iqtisodiy standartlar va boshqa qoidalarga qat'iy rioya qilish.

Shunday qilib, tijorat banklari moliyasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, bir tomondan, ularning bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yuritishi, boshqa tomondan esa pul bozorida moliyaviy vositachi sifatida xizmat ko'rsatishi bilan belgilanadi [6].

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish natijasida moliyaviy faoliyatni tahlil va baholash usullarini moliyaviy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi mexanizmlar tizimiga integratsiya qilish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida, tadqiqot doirasida bank moliyaviy mexanizmining asosiy tarkibiy elementlarini aniqlash hamda ularni tizimli shaklda shakllantirish uchun asos yaratadi.

Quyidagi 1-jadvalda esa tijorat banklarida yuzaga keladigan pul munosabatlarini ifodalash mumkin.

1-jadval. Tijorat banklarida yuzaga keladigan pul munosabatlarini*

№	Pul munosabatlarini	Qisqacha mazmuni
1	Tijorat tashkilotlariga xos bo'lgan munosabatlar	-kredit tashkilotlarining moliyaviy resurslarini shakllantirish uchun asos bo'lgan bank xizmatlari iste'molchilari bilan munosabatlar; -mamlakat budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bilan bog'liq munosabatlar; -tijorat banklarining ichki munosabatlari, shuningdek tijorat banklarining moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonida vositachilik qiluvchi boshqa xo'jalik yurituvchi subektlar bilan munosabatlar;
2	Tijorat banklarining pul muomalasi sohasidagi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq munosabatlar	-tijorat banklari mijozlar nomidan mamlakat budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'tkazish; -budjetning kassa ijrosini amalga oshirish; -davlat qimmatli qog'ozlarini, davlat hokimiyati organlari va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda dilerlar sifatida harakat qilish


* Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Moliyaviy mexanizmning asosiy elementlaridan biri sifatida tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash, tartibga solish, xodimlarni rag'batlantirish tizimi va boshqa jarayonlarni o'z ichiga olgan moliyaviy boshqaruv usullari e'tirof etiladi. Biroq ushbu element bank amaliyotida ayrim o'ziga xos farqlarga ega. Moliyaviy mexanizmning mazkur elementi banklar uchun ichki element sifatida qaralganligi sababli, bank faoliyatida "sug'urta" va "ichki



sug'urta" tushunchalari orqali izohlanadi. Ya'ni, bank tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiralar shakllantirish, mijozlarga kredit ajratishda garov ta'minotini talab qilish va boshqa choralar ushbu element tarkibiga kiradi [6].

Tijorat banki ko'plab bank va nobank operatsiyalari hamda xizmatlarni amalga oshiradi. Ushbu operatsiyalar bo'yicha belgilangan narxlar bankning moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur operatsiyalar bankning o'ziga xos moliyaviy mahsuloti hisoblanganligi sababli, bahoni (stavkalarni) shakllantirish bankning moliyaviy boshqaruvida nisbatan o'ziga xos yondashuvga ega. Mijozlar qamrovini kengaytirish maqsadida banklar filiallar, bo'limlar va mini-banklarni faol ravishda tashkil etmoqda. Natijada bankning bosh ofisi bilan mustaqil tarkibiy bo'linmalari o'rtasida pul o'tkazmalari orqali moliyaviy munosabatlar tizimi shakllanadi. Bankning muayyan tarkibiy bo'linmasi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari hamda ushbu bo'linma faoliyat yuritayotgan tashqi bozor sharoitini hisobga olgan holda operatsiyalar bo'yicha individual stavkalar belgilanadi. Quyidagi 1-rasmda esa tijorat banklarining moliyaviy mexanizmi asosiy elementlari keltirilgan.



1-rasm. Bank moliyaviy mexanizmining asosiy elementlari*

* Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Banklarda jamg'armalarni tashkil etish korxonalar uchun xos bo'lgan tegishli moliyaviy usullardan deyarli farq qilmaydi, biroq mablag'larni shakllantirish ko'lam (zaxira, maxsus, jamg'arma, rivojlanish va boshqalar) korxonalarga nisbatan hajm jihatdan bir necha baravar kattaroqdir. Shunga o'xshash xulosani investitsiyalash (maqsadli investitsiyalar, loyihani moliyalashtirish) kabi moliyaviy usullar bo'yicha ham keltirish mumkin, chunki banklar katta miqdordagi moliyaviy resurslarni to'plab, ularni uzoq muddatli investitsiya loyihalariga joylashtirishi mumkin. Moliyaviy usullar tizimi, shuningdek, bankning moliyaviy faoliyati sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'ladigan bank faoliyatini tahlil qilish va baholash usullari (balans tahlili, iqtisodiy-matematik usullar, ekspert baholari, qiymatni diskontlash va boshqalar) bilan to'ldiriladi.

Boshqaruvning moliyaviy vositalari tarkibiga moliyaviy faoliyat sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish jarayoniga ta'sir ko'rsatishning asosiy shakllari kiradi. Moliyaviy vositalar tushunchasi bank faoliyatida ma'lum darajada o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: daromad, foyda, chegirma, dividend, valyuta kurslari kotirovkasi, ijara haqi, ustav kapitaliga mablag' kiritish va boshqalar. Narx (baho) kategoriyasi o'rniga esa bank faoliyati uchun xos bo'lgan foiz stavkalari, tariflar hamda bank operatsiyalari bo'yicha komissiyalar qo'llaniladi. Shuningdek, moliyaviy vositalar tarkibini bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish shartlari, sug'urta depoziti, majburiyatlarni to'lash uchun imtiyozli davr, chegirmalar hamda bonuslar kabi elementlar bilan kengaytirish mumkin.

Bank amaliyotida qo'llaniladigan moliyaviy vositalardan biri sifatida bir vaqtning o'zida yakuniy moliyaviy natijaga ham, shuningdek bank risklarini boshqarishga ham ta'sir ko'rsatadigan mexanizm — kreditlar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiralarni shakllantirish hisoblanadi. Bir tomondan, zaxiralarning oshishi bankning daromad keltiruvchi operatsiyalari (kreditlar, qimmatli qog'ozlar, lizing, faktoring va boshqalar) bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli resurslarni shakllantirishga imkon bersa, ikkinchi

tomondan, ushbu zaxiralar bankning taqsimlanmagan foydasi hisobidan yaratilgani sababli, ularning ko'payishi bank foydasining kamayishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har qanday moliyaviy boshqaruv tizimining faoliyati amaldagi huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Fikrimizcha, bank moliyaviy mexanizmining huquqiy asoslarini ikki yo'nalishda o'rganish muhimdir:

1. barcha tijorat banklari uchun bir xil darajada majburiy bo'lgan tashqi huquqiy ta'minot;
2. banklarning tegishli bo'limlari tomonidan shakllantiriladigan hamda muntazam takomillashtirib boriladigan ichki me'yoriy ta'minot.

Shuningdek, bank moliyaviy mexanizmi faoliyatining huquqiy asoslari xalqaro moliya-kredit tashkilotlari hamda banklar uyushmalarining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasini tartibga soluvchi hujjatlar asosida ham yuritiladi va bu bankning xalqaro faoliyatini belgilab beradi. Tartibga soluvchi hujjatlarga banklar assotsiatsiyalari tomonidan qabul qilingan qarorlar va tavsiyalar, shuningdek xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar kiradi. Ularga rioya etish mahalliy tijorat banklariga xalqaro standartlarga moslashish imkonini beradi. Bunday hujjatlar qatoriga banklar faoliyatini tartibga solish bo'yicha Bazel qo'mitasining qoidalar va tavsiyalari, xalqaro konvensiyalar, xalqaro shartnomalar va boshqa normativ manbalar kiradi. Tijorat bankining moliya bozoridagi faoliyati esa tegishli bank litsenziyalari, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchisi litsenziyalari, to'lov kartalarini chiqarish uchun ruxsatnomalar va boshqa hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Shu bilan birga, tijorat banklarida moliyaviy mexanizm samaradorligini oshirish maqsadida ichki nazorat, risk-menejment va komplayens tizimlarini yanada kuchaytirish zarur. Xususan, bank operatsiyalari bo'yicha risklarni erta aniqlash va monitoring qilish, kredit portfeli sifatini doimiy baholab borish, zaxiralarni shakllantirish jarayonida shaffoflikni ta'minlash hamda korporativ boshqaruv organlari tomonidan moliyaviy qarorlarning asoslanganligini muntazam nazorat qilish bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada bank faoliyatining xalqaro talablarga mosligi oshib, investorlar va omonatchilar ishonchini kuchaytirish imkoniyati yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 30-iyundagi "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi ro'yxat raqami 3254-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4888804>
2. Balabanov I.T. Osnovy finansovogo menedjmenta: o'quv qo'llanma. — Moskva: Finansy i statistika, 2010. — 525 b.
3. Blank I.A. Upravleniye finansovymi resursami: darslik. — Moskva: Omega-L, 2010. — 768 b.
4. Buraeva Ye., Rvacheva N. Finansovyy mekhanizm kak sredstvo sderzhvaniya riskov kommercheskikh bankov // Vestnik KemGU. — 2019. — № 4. — B. 45–48.
5. Andreeva L.Yu., Vorobeva N.A. Osobennosti novogo finansovogo mekhanizma sanatsii rossiyskikh kommercheskikh bankov // Nauka i obrazovanie: khozyaystvo i ekonomika; predprinimatelstvo; pravo i upravlenie. — 2018. — № 1. — B. 10–13.
6. Temirov A.A. Improvement of corporate governance in the banking sector of the Republic of Uzbekistan // Modern School of Russia. Issues of Modernization. — 2022. — No. 1 (38, v2). — P. 28–30.
7. Xolnova Ye. Sostavlyayushchie finansovogo mekhanizma otechestvennogo bankovskogo menedjmenta // Finansy i kredit. — 2008. — № 28. — B. 2–9.
8. Basel Committee on Banking Supervision (BCBS). Principles for Enhancing Corporate Governance. — Basel: Bank for International Settlements, 2015.
9. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance. — Paris: OECD Publishing, 2015.
10. International Monetary Fund (IMF). Financial Soundness Indicators: Compilation Guide. — Washington, DC: IMF, 2019.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100